

SINFDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARDA MANTIQUIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH

¹Mamasaidova Muhabbat Abdusalom qizi, ²Abdukabirova Shohsanam
Mansurjon qizi.

¹FarDU, boshlang‘ich ta‘lim uslubiyoti kafedrası katta o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

²Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi

¹Gmail: sohibjon9091@gmail.com

²Gmail: abdukabirovashohsanam005@gmail.com

Tel: +998912005518

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini sinfdan tashqari mashg‘ulotlar vaqtida mantiqiy tafakkurlarini rivojlantirishni takomillashtirish usullari bayon etilgan hamda mantiqiy tafakkurga tayangan holda yechimini topishi kerak bo‘lgan bir nechta topshiriqlar berilgan. Berilgan topshiriqlarning yechimlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: fikr, tafakkur, idrok, mantiqiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, mantiqiy tafakkur, g‘oya, yechim.

РАЗВИТИЕ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ВО ВНЕ КЛАССНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

¹Мамасайдова Мухаббат Абдусалам дочь, ²Шохсанам Абдукабирова.

¹ФарГУ, старший преподаватель кафедры методики начального образования,
доктор философских наук по педагогическим наукам

²Начальное образование, студентка 1 курса

¹Gmail: sohibjon9091@gmail.com

²Gmail: abdukabirovashohsanam005@gmail.com

Телефон: +998912005518

Аннотация: В этой статье описаны методы улучшения развития логического мышления учащихся начальной школы во время внеклассных занятий, а также даны несколько заданий, решение которых необходимо

найти, опираясь на логическое мышление. Показаны решения поставленных задач.

Ключевые слова: мысль, мышление, восприятие, логическое мышление, критическое мышление, логическое мышление, идея, решение

DEVELOPMENT OF LOGICAL THINKING IN ACTIVITIES OUTSIDE THE CLASSROOM

¹Mamasaidova Muhabbat Abdusalam's daughter, ²Shokhsanam Abdukabirova.

¹FerSU, senior teacher of the Department of Primary Education Methodology,
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

²Primary education, 1st year student Abdukabirova Sh.

¹Gmail: sohibjon9091@gmail.com

²Gmail: abdukabirovashohsanam005@gmail.com

Phone: +998912005518

Annotation: *this article describes methods for improving the development of logical thinking of elementary students during extracurricular activities, and gives several tasks that need to find a solution, relying on logical thinking. Solutions to given assignments are outlined.*

Keywords: thought, thinking, perception, logical thinking, critical thinking, logical thinking, idea, solution

Kirish

Hozirgi raqamli texnologiya davrida o'quvchilar ta'lim va tarbiyasi, ularning so'zlayotgan so'zlari, qilayotgan harakatlari va albatta kelajakka qanday ko'z bilan qarayotganliklari shaxsga yo'naltirilgan ta'limning diqqat markazida asosiy o'rinda turadi. Hamjihatlik, insoniylik va yuksak axloqiy fazilatlar inson madaniyatining darajasini belgilovchi fazilatlardandir. Inson vaqt o'tishi bilan shaxs darajasida shakllanar ekan, unda o'ziga bo'lgan ishonch, o'ziga xos mavjud ijodkorlik xususiyatlari, imkoniyatlarini amalga oshirishga undovchi kuch holatlari sodir bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning matematik bilimlarini oshirish, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda mantiqiy fikrlashni o'stirish hozirgi zamonning dolzarb masalalaridan biridir. Bu bo'yicha ko'plab olimlar o'z ilmiy izlanishlarini olib borgan. Ushbu izlanishlar asosan ta'lim jarayonining mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, rus olimlaridan M.V.Klarin, Yu.A.Samarin, B.M.Teplov, A.I.Lipkinalar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, AQSH olimi Frey C. B., "The future of employment: How susceptible are jobs to computerisation?" nomli kitobida Amerika Qo'shma Shtatlari misolida boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha o'z fikrlarini bayon etgan. O'zbekistonlik N.N.Azizxodjayevaning "Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat" nomli o'quv qo'llanmasida mantiqiy fikrlash bo'yicha ko'pgina fikrlarni topish mumkin. Bundan tashqari yurtimizda har yili o'tkazilayotgan "Kengaroo" xalqaro olimpiadasi ham o'quvchilarning mantiqiy fikrlash darajasini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda maktab o'quvchilarining qay darajada mantiqiy fikrlay olishlari sinovdan o'tkaziladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik savodxonlikni rivojlantiruvchi hamda o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga undovchi masalalar va ularni yechimlari keltirib o'tilgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Azaldan insonlar ijtimoiylashuv uchun muloqot muhim ekanligini ta'kidlab kelishgan. Odamlar o'rtasida o'z o'rniga ega bo'lishi, ular bilan iliq va samimiy muloqotni yo'lga qo'yishi, o'zi atrofida boshqalarni yig'a olish ko'nikmasi bolada yoshligidan shakllanadi. Keyinchalik esa bu inson harakteriga aylanib ketadi. Bolalarni hayotda o'z o'rnini topishlari ham aynan shu holdan, muloqotdan boshlanadi. Muloqot aslida ko'ringanidek sodda tuzilishga ega emas. Kishi so'zlayotgan so'zlarini tushunishi, ularning mag'zini chaqa olishi, chuqur fikrlab tahlil qila olishi zarur. Bu esa kishida chuqur bilim va o'z o'rnida mantiq ilmlarini bilishini kafolatlaydi. Qanchalik bilim chuqur olinsa, shunchalik mantiqiy fikrlash

oshib tafakkur kengayadi. Shu sababli ham bolalarni porloq kelajak sari tayyorlashda mantiqiy fikrlashni o'rgatish o'zni nihoyatda katta. Buni amalga oshirish uchun eng avvalo bolalarni yoshlikdan bilimga chanqoq qilib o'stirish lozim. Ularni o'z ustilarida ko'proq ishlashga o'rgatish, jamoa bilan birgalikda ish olib borishga ko'maklashish lozimdir. Kelajakda qanday kasb egalari bo'lishidan qat'iy nazar o'z kasblari mutaxassisi, shu soha bo'yicha katta va chuqur bilimlarga ega bo'lishi jamiyat uchun ham katta yutuq hisoblanadi. Agarda bilimlarga ega bo'lsa ham, erkin fikrlash qobiliyati mavjud bo'lmasa, unda qilingan harakatlar o'z natijasini bermaydi. Inson erkin fikrlashi va mustaqil qaror chiqarishi bilan qadrlanadi. Bolada avvaldan mavjud bo'lgan dunyoqarashi vaqtlar o'tishi bilan egallangan bilimlari, irodasi, shaxsiy tafakkuri va olamga qiziqishi tufayli yanada rivojlanadi. Tafakkur inson bilimining eng yuqori bosqichi bo'lganligi sababli ham, ya'ni inson ma'naviyatining tarkibiy qismi, bilishning olamdagi narsa va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlarini aniqlaydigan, qonuniy bog'lanishlarni aks ettiradigan aqliy bosqich bo'lganligi sababli buni yosh avlodga yetkazib berish muhim vazifa sanaladi. Atrof muhitdagi real dunyoni bilishga, uning asosiy tushunchalarini va g'oyalari anglab yetishiga ko'maklashish ham zarur. Bu jarayonni ayniqsa boshlang'ich ta'limda rivojlantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Aytib o'tilganidek, tafakkurning kuchli va mastahkam bo'lishi chuqur bilimlarni egallashdan iboratdir. O'quvchilarga bilimlarni samarali yetkazish esa albatta o'qituvchiga bog'liqdir. Buning uchun eng avvalo o'qituvchining o'zi mohir pedagog, o'z o'rnida kuchli psixolog ham bo'lishi zarur. O'qituvchida bilim bo'lsa-yu, ammo uni o'quvchilarga yetkazib bera olmasa, unda bu jamiyat uchun yetishib chiqayotgan turli xil shaxslarni qimmatli vaqtini, qaytarib bo'lmas yoshlikdagi olinuvchi bilimlarni suistemol qilgan bo'ladi. Shunday ekan nafaqat o'quvchida balki eng avvalo o'qituvchida tafakkur doirasi keng va kuchli bo'lishi zarur. O'qituvchi bolalarga fanlar bo'yicha dars berar ekan, ularni integratsiya holida o'tishi lozim. Negaki, bolada bir fanning o'zida ikkita yoki uchta tushunchaga ega bo'ladi. Bu esa o'z o'rnida bolaning tafakkurini kengayishiga olib keladi. Bu jarayonda bola odam va olam sirlarini o'rganishda

hosil bo'lgan qarash, tushuncha va farazlar majmui, u orqali inson xulosa va mulohazlarning qanchalik to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini bilib oladi. Shu o'rinda u mulohaza yuritib, mazkur jarayon va hodisalar o'rtasidagi munosabatlarni, o'ziga xos xususiyatlarni, ularni bir-biri bilan bog'liqlik yoki farqlarini o'rganadi. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilari ichki dunyosi kattalardan farq qilganligi sababli, ularning o'ylarining ham chegarasi kattalarnikidan keskin farq qiladi. Fikrlashlar esa faqatgina miya faoliyati bilan bog'liq emas, balki qalb va ruhiyat bilan uzviy bog'liqdir. Bolalarda shu sababi fikrlash saviyasi ham, xatti-harakati ham shunga yarasha bo'ladi. Shularni hisobga olgan holda bolalarda mantiqiy fikrlashni faqat bilim berish orqali emas balki turli xil o'yin shaklidagi metodlardan foydalanish zarur. Bolalarda energiya kuchli bo'lganligi uchun ularni birdamlikdagi jamoaviy o'yinlarni o'ynatish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu esa ularni o'z kuchlarini teng taqsimlashga, hamfikrlikni, o'zaro muloqot shakllarini va o'z fikrlarini erkin almashtira olish imkon yaratadi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda qiziqarli masala va misollarni o'rni beqiyosdir. Shuning uchun malakali o'qituvchi o'quvchilar uchun dastlab ular yecha oladigan mantiqiy misol va masalalarni berishdan boshlashi zarur. Undan keyin esa masalalarni qiyinlik darajasi asta sekin murakkablashib boradi. Har bir taqdim etilgan misol, masalaning yechimi o'quvchilarga tushuntirib berilishi lozim. Quyidagi mantiqiy fikrlashga undovchi masalani qaraylik:

1-masala. Boburda 15 ta olma, Sarvarda esa Boburga qaraganda 3 ta ko'p olma bor. Boburdagi olmalar soni Dilshoddan 5 ta kam ekanligi ma'lum bo'lsa, qaysi o'quvchida olmalar soni eng ko'p?

Demak, Boburdan 15 ta olma borligi ma'lum. Sarvarda esa Boburnikidan 3 ta ko'p olma mavjud. Sarvardagi olmalarini topish uchun Boburning olmalari soniga yana 3 ta olmani qo'shamiz. Ya'ni $15+3=18$. Endi Sarvarning olmalar soni aniq bo'ldi. Uni olmalar soni 18 tani tashkil etdi. Keyingi navbatda Dilshodning olmalari soniga e'tibor qaratamiz. Boburdagi olmalar soni Dilshoddan 5 ta kam. Ya'ni endi Boburnikiga yana 5 ta olmani qo'shish kerak. Shunda Dilshoddagi olmalar soni aniq bo'ladi. Bunda $15+5=20$ ni hosil qiladi. Demak:

Boburda — 15 ta

Sarvarda — 18 ta


Dilshodda — 20 ta

Savolda olmalari eng ko'p o'quvchidagi olmalar sonini toping deyilgan. Bundan ko'rinib turibdiki eng ko'p olmalari bor o'quvchi bu Dilshod. Ya'ni unda 20 ta olma bor.

Javob: 20

2-masala. Suv bilan to'latilgan stakanning vazni 400 grammga teng. Bo'sh stakanning vazni esa 100 grammga teng. Yarmigacha suv bilan to'latilgan stakanning og'irligini aniqlang? (1-rasm)

Suv bilan to'latilgan stakanning vazni 400 grammga teng bo'lsa, undan bo'sh stakan vaznini chiqarib tashlaymiz. Bu orqali esa bir stakan suvning og'irligini aniqlaymiz. Ya'ni $400 - 100 = 300$ bo'ladi.



Demak, suvning og'irligi 300 grammga teng. Endi esa yarim stakan suvning vaznini aniqlaymiz. Bunda $300 : 2 = 150$ gramm bo'ladi. Keyin bosh stakan va yarim stakan suv vaznini qo'shamiz. Ya'ni $100 + 150 = 250$ bo'lib qoladi.

Demak, javob: 250 gramm

3-masala. Stiven 2, 0, 1, 9 raqamlarini quyidagi katakchalarga joylashtirib, eng katta sonni hosil qilmoqchi. Savol belgisi o'rniga qanday raqamlarni yozishi mumkin?

--	--	--

 + ?

Bu misolda dastlab eng katta raqamni topib olish zarur. Avvalo kataklarning birinchisiga berilgan raqamlardan kattasi 9 raqamini olsak, keyingi o'ringa 2 raqamini qo'ysak ham o'rinli bo'ladi. Berilganlardan keyingi katta son esa bu 1 ni tashkil etadi. Endi esa qo'shiluvchi son nolni tashkil etadi. Shunda umumiy yig'indi 921 tashkil etadi. Ammo, boshqa istisno holati ham vujudga keladi. Bunda 9 va 2 sonlaridan keyin nolni ham joylashimiz mumkin bo'lib qoladi. Keyin qo'shiluvchi 1 sonini tashkil qilib umumiy yig'indi yana 921 holiga kelib qoladi. Demak, misolda so'roq o'rnidagi sonlar bu 1 va 0 ni keltirib chiqar ekan.

Javob: 0 yoki 1

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish joizki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlashni o'stirish orqali ularning dunyo qarashlarini ham kengaytirish mumkin, Buning uchun esa ular bilan tanqidiy fikrlashga undaydigan misol va masalalar, topishmoqlar, matematik rebuslar, boshqotirmalarni uzluksiz ravishda ko'rib borish darkor. Chunki ularni saviyali kadr qilib tarbiyalash barchamiz uchun birdek foydalidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Липкина, А.И. Критичность и самооценка в учебной деятельности [Текст] / А.И.Липкина, Л.А.Рыбак. – М., Просвещение , 1985. – 145 с.
2. Frey C. B., Osborne M. A. The future of employment: How susceptible are jobs to computerisation? Oxford: University of Oxford, 2013. 72 p.
3. Azizxodjayeva N.N. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. Ўқув қўлланма. – Тошкент: ТГПУ, 2003. – 174 б.
4. “Kengaroo” xalqaro olimpiadasi savolnomasi.-2022 yil.